

Sport bizni birlashtiradi

2018 yil 5-6 oktyabr kunlari "Sport bizni birlashtiradi" shiori ostida fakul'tetlararo 1-bosqich talaba-yoshlari o'rtasida sportning voleybol turi bo'yicha Rektor kubogi musobaqasi o'tkazildi. Musobaqada 7 ta fakul'tet (GM, GIM, GTQ, QSXET, QXM, YRB, SXTEB,) terma jamoalari o'rtasida bellashuv bo'lib o'tdi.

Mazkur musobaqada jami 84 nafar talaba-yoshlar faol ishtirok etishdi. Musobaqa sermazmun va samarali o'tkazildi. Ushbu bellashuv yakunida g'olib jamoalarini institut rahbariyati diplom, kubok hamda estalik sovg'alar bilan munosib taqdirladi.



Musobaqa g'oliblari:

1-o'rin. YRB fakul'teti terma jamoasi

2-o'rin. QSXET fakul'teti terma jamoasi

3-o'rin. GTQ fakul'teti terma jamoasi

"Jismoniy madaniyat va sport" kafedrasi mudiri M.Norqobilov axboroti
Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov